

XX-ASR O‘ZBEK KOMPOZITORLIK IJODIYOTIDA SIMFONIK

MUSIQA

Haydarova Visola Sherzod qizi,

J.D.P.I. Musiqa madaniyati fakulteti

Musiqa ta’limi yo’nalishi, 2- bosqich talabasi

M.Axrorova, ilmiy rahbar

J.D.P.I. Musiqa madaniyati fakulteti

Musiqa ta’limi kafedrası o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX-asr O‘zbekiston kompozitorlari ijodida simfonik musiqaning rivojlanish bosqichlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: kompozitorlik, simfoniya, poema, syuita, uvertyura.

O‘zbek kompozitorlik ijodiyotining asosiy yo‘nalishlaridan biri simfonik musiqadir. Ushbu yo‘nalishning vujudga kelish davri XX-asrning 30-yillariga to‘g‘ri keladi. O‘zbek simfonik musiqasiga ilk qadam V.A. Uspenskiy tomonidan 1924-yil qayta ishlangan simfonik orkestr uchun “O‘rta Osiyo xalqlarining to‘rt kuyi” nomli asari bilan qo‘yildi. Uspenskiy O‘zbek musiq folklor namunalari o‘zining mustaqil badiiy qiymatiga ega ekanligiga va bu kompozitorlik ijodining eng noyob ohang manbai bo‘lishiga ishonib, shu yo‘lda faol izlanishlar olib bordi. Ular milliy musiq merosimizni qayta ishlash, moslashtirish bilan chegaralanib qolmay, mumtoz namunalar negizida turli janrdagi, shu qatorda simfonik ijodiyotda ham mustaqil asarlarni yaratdilar.

O‘zbekistonda ko‘p ovozli musiqaning professional janrlarini yaratishda kompozitorlar V.A.Uspenskiy, R.M.Glier, S.N.Vasilenko, A.F. Kozlovskiy va G.A.Mushellar katta yordam ko‘rsatishdi. O‘zbek kuylarini simfonik orkestr uchun moslashning ilk tajribasi o‘tgan asrning 20- yillarida bo‘lib o‘tgan, 30-yillarning birinchi yarmida esa xilma-xil janrlar doirasida qator asarlar yaratildi.

30-yillarning ikkinchi yarmida simfonik musiqada yangi nomlar, yangi ijodkorlar o‘z faoliyatlarini boshladilar. Bu davr simfonik musiqasi A. F. Kozlovskiy va G. A. Mushel nomlari bilan bevosita bog‘liqdir. Bundan keyingi rivojlanish jarayonida ya’ni 1941-1945-yillarda simfonik musiq yo‘nalishi janr

doirasi kengaydi. Kompozitorlar tomonidan syuita va poema bilan bir qatorda uvertyura hamda cholg‘u kontsert asarlari yaratila boshladi. O‘tgan asrning 60-70-yillarida Muxtor Ashrafiy, Mutal Burhonov, Aleksey Kozlovskiy, Georgiy Mushel kabi kompozitorlar qatoriga Sulaymon Yudakov, Sobir Boboev, Boris Gienko, Ikrom Akbarov, Doni Zokirov, Rashid Hamroev, To‘lqin Qurbonov, Sayfi Jalil, Komil Kenjaev, Feliks Yanov-Yanovskiy, Dilorom Saydaminova, Mirsodiq Tojiev, Rustam Abdullaev, Mirhalil Mahmudov, Mustafu Bafoev, Habibullo Rahimov kabi kompozitorlar qo‘shildi.

Darhaqiqat, XX-asrning ikkinchi yarmida simfonik musiqa janrida olib borilgan izchil izlanishlar natijasida kompozitorlik ijodiyotida simfonik musiqa yetakchi soha bo‘lib qoldi. Mavzu hamda obrazlar qamrovi kengaydi, zamonaviy mavzularga bo‘lgan e‘tibor orta boshladi. Kompozitorlar o‘z ijodida xalq ommaviy qo‘shiq janrlariga nisbatan og‘zaki an‘anadagi professional musiqa janrlari – maqom va unga uslubdosh rivojlangan cholg‘u asarlariga murojaat qilishdi.

Simfonik musiqaning kompozitorlar ijodida yetakchi o‘ringa ko‘tarila borishi jarayonida uning janr doirasi sezilarli kengaydi, uslub jihatidan boyidi. Nafaqat sof simfoniya janri, balki syuita, poema, uvertyura, konsert singari simfonik janrlarda ham samarali ijod mahsullari yaratildi. Syuita umumiy g‘oyaga ega bo‘lgan o‘zaro kontrastlikdagi bir necha mustaqil qismlardan iborat musiqiy shakl bo‘lib, u qo‘shiq va raqs bilan aloqadordir. O‘zbek kompozitorlari ijodida syuita janriga ko‘p marotaba murojaat etishgan.

Poema-lirik-dramatik yoki lirik-hikoyaviy xarakterga ega erkin shakldagi musiqa asari, simfonik poema esa muayyan mavzu yoki syujetga asoslangan bir qismli simfonik asar. Ushbu simfonik janrda O‘zbekistonda barcha davr kompozitorlari tomonidan poema-ballada, poema-rapsodiya, musiqiy manzara kabi poema turlarida simfonik asarlar yaratilgan. I.Akbarovning “Shoir xotirasiga” simfonik poemasi, A.Kozlovskiyning “Hindcha poema”si, M.Ashrafiyning “Temur Malik” poema rapsodiyasi, S.Yudakovning “Poema-rapsodiya” si shular jumlasidan.

Simfonik musiqaning yana bir alohida janri – uvertyura. Ushbu janrda sahna asarlari (spektakl, opera, balet, operetta), vokal-cholgʻu asarlari (kantata, oratoriya), syuita turidagi cholgʻu pesalarining orkestr ijrosidagi kirish qismlari yoziladi. Shuningdek, mustaqil, alohida janr sifatida ham kompozitorlik ijodiyotida mustahkam oʻrin egallaydi. Uvertyura alohida simfonik janr sifatida koʻproq dasturiylikka asoslanadi va bayramona, tantanavor ruhda boʻladi. Oʻzbekiston kompozitorlari ijodida uvertyuraning aynan shunday koʻrinishi koʻproq rivojlangan. M.Ashrafiyning “Bayramona uvertyura”si, A.Kozlovskiyning “Shodiyona” uvertyurasi, G.Qodirov “Yoshlik uvertyurasi”, K.Kenjaevning “Yoshlik uvertyurasi” bunga misol boʻla oladi.

Oʻzbekiston kompozitorlik ijodiyotida cholgʻuli kontsert janri ilk bora G.Mushel tomonidan rivojlantirilgan (fortepino va skripka uchun uchinchi va toʻrtinchi kontsertlari). Shuningdek, qator kompozitorlar ham ushbu janrga murojaat etishgan. Ikrom Akbarov, Sayfi Jalil, Boris Gienko, F.M.Yanov – Yanovskiyalar shular qatoridadir.

Oʻzbekiston kompozitorlari ijodida zamonga xos talablar doimo oʻzining munosib javobini olgan. Bu esa oʻz oʻrnida kompozitorlarning ijodida turli janr va musiqiy yoʻnalishlarda yaratilgan rang-barang asarlarda oʻz ifodasini topgan. Simfonik janrlar ham ushbu talabdan chetda qolmasdan Oʻzbekiston kompozitorlarining diqqat markazidadir. XX-asr oʻrtasidan boshlab hozirgi davrgacha yaratilgan ushbu janrdagi asarlar badiiy jihatdan turli ahamiyatga ega boʻlsada, kompozitorlik maktabining rivojlanishiga oʻzining salmoqli hissasini qoʻshgan.